



FE'LNING NISBAT DARAJALARI METODOLOGIYASI

Ergashova Fayoza Tolib qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fe'l nisbatlarning leksik-semantik va gramatik xususiyatlari, ularning yasalishi va lug'aviy ma'nosidagi munozarali holatlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Fe'l, o'zlik nisbat, birgalik nisbat, majhul nisbat, aniq nisbat, orttirma nisbat.

Аннотация: В данной статье освещаются лексико-семантические и грамматические особенности глагольных соотношений, их образование и спорные случаи в словарном значении.

Ключевые слова: Глагол, пропорция единственного числа, пропорция единственного числа, пассивная пропорция, определенная пропорция, винительная пропорция.

Abstract: In this article, the lexical-semantic and grammatical features of the verb ratios, their formation and the controversial cases in the dictionary meaning are covered.

Key words: Verb, singular proportion, singular proportion, passive proportion, definite proportion, accusative proportion.

Shaxs va narsaning harakat holatini bildiruvchi, shuningdek *nima qilmoq?*, *nima bo'lmoq?*, so'roqlariga javob bo'luvchi turkumga *fe'l* deyiladi. **Masalan:** *Ishlamoq*, *kuylamoq*.

Demak, mening maqolamni mavzusi "Fe'lning nisbat darajalari" bo'lsa men sizga yuqorida fe'lning qanday ma'no anglatishini va qanday so'roqqa javob bo'lishini aytib o'tdim. Endi esa fe'lning nisbat shakllari haqida birma bir tanishib oxirida esa umumiy xulosa qilamiz.

Bajaruvching harakat jarayonida qay darajada ishtirok etishi *nisbat* deyiladi.

Bajarilayotgan harakat va shu harakatni yuzaga chiqarayotgan shaxs o'rtasidagi munosabatni bildirgan shaxslarga nisbat shakllari deyiladi.

Nisbat qo'shimchalari vazifasiga ko'ra *lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha* hisoblanadi. Demak, nisbat qo'shimchalari fe'lning asos qismidan so'ng qo'shiladi, ya'ni, zamon va shaxs son qo'shimchalaridan oldin qo'llaniladi. **Masalan :** *gapirtirdim*.

Keling endi fe'l nisbat turlari haqida tanishamiz. Fe'l 5ta nisbat shakllariga ega. Bular: **1) Aniq nisbati, 2) O'zlik nisbati, 3) Majhul nisbati, 4) Orttirma nisbati 5) Birgalik nisbati.**



1. Aniq nisbat —*Nargiza Erkaboyevaning qarashicha* fe'llar harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalagan harakat— holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi. Aniq nisbatdagi fe'llarda maxsus nisbat qo'shimchalari bo'lmaydi. Aniq nisbat bosh nisbat deb ham yuritiladi va harakat— holatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi. **Masalan: Fayoz** *kiyimlarini yuvdi* gapida *Fayoz*-bajaruvchi, ega vazifasini bajargan, *kiyimlarini* -obyekt (obyekt-harakat, nimaning ustida bajarilayotganini bildiradi), to'ldiruvchi vazifasini bajargan, *yuvdi*-harakat kesim vazifasini bajargan.

Madrim Hamroyevning qarashicha esa - Aniq nisbat shaklidagi fe'lda harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan ega vazifasini bajargan shaxs yoki predmet bo'ladi. To'ldiruvchi esa harakatning obyekti bo'ladi. Gapning bunday qurilishi tilshunoslikda aktiv konstruktsiya (faol qurilma) deb yuritiladi. **Masalan: Navoiy shiringina yasog'liq uyda tanho ishlar edi.** Ushbu gapda *ishlar edi* harakatining bajaruvchisi (subyekti) *Navoiy* bo'lib, u ega orqali ifodalangan. Harakatning obyekti esa *uyda* holi orqali ifodalangan. Bunday shaklda maxsus nisbat ko'rsatkichi yo'q. Bu nisbat ma'nosi fe'l negizi orqali ifodalanadi, shuning uchun ham u boshqa nisbat shakllarini hosil qilishi uchun asos bo'la oladi (keling ushbu so'zlarni qiyoslaymiz: o'qidi, o'qildi, o'qishdi, o'qitdi kabi)

2. Nargiza Erkaboyevaning fikricha O'zlik nisbati. Bizga ma'lumki, o'zlik nisbati — (i)n, —(i)l qo'shimchalari bilan ifodalanadi. Shuningdek, harakat bildiruvchi harakatni o'z ustida bajaradi. **Masalan: Fayoz tarand.** *Mashina o'ng tomonga burildi. Munisa kiyindi. Prujina o'ng tomonga burildi.*

Endi esa e'tiboringizni bir eslatmaga qaratamiz. O'zlik nisbatda harakat bajaruvchisi bitta bo'ladi. Ya'ni, bajarilayotgan harakat menga yoki senga balki, unga tegishli bo'lishi mumkin.

Madrim Hamroyevning yozishicha O'zlik nisbatidagi fe'lda harakatning subyekti bilan obyekti bir shaxsning o'zi bo'ladi. **Masalan: Men har tong qishloqning go'zalligi, fayzi bilan zavqlanaman.** Gapida *zavqlanaman* fe'li tarkibida kelgan —*lan* qo'shimchasi harakatning subyekti bilan obyekti *men* shaxsi ekanligini ko'rsatib turibdi deya ta'kidlab o'tadi.

3. Nargiza Erkaboyevaning fikricha Majhul nisbati. Ushbu nisbatning qo'shimchasi xuddi o'zlik nisbatnikidek -(i)n, -(i)l qo'shimchalari bilan ifodalanadi. Shuningdek bunda harakat bajaruvchisi noma'lum bo'lishi yoki *tomonidan* ko'makchisi bilan qo'llanilishi mumkin. **Masalan: Chiqindilar tashlandi. Kiyimlar ilindi. Xona bezald.** *Sharlar osildi.*

Shuni eslatib o'tish joizki majhul nisbatga tushgan obyekti ega, harakat bajaruvchisi esa *tomonidan* ko'makchisi bilan ifodalanib to'ldiruvchi hisoblanadi. **Masalan: Noshirlar tomonidan gazeta chiqarildi.** Chiqarildi so'zi bu yerda kesim vazifasida kelgan.



Madrim Hamroyevning fikricha Majhul nisbati shaklidagi fe'lda harakat bajaruvchisi subyekt (ega) emas, obyekt (to'ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi. **Masalan: Ot-aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi.** Gapida **olib kirildi** harakatning bajaruvchisi subyekt noma'lum, **ot-arava** so'zi ega vazifasida kelsa-da, obyekt vazifasini bajargan.

4. Nargiza Erkaboyevaning fikricha Birgalik nisbati -(i)sh qo'shimchasi bilan ifodalanuvchi harakat bajaruvchisi bittadan ko'p bo'lgan nisbat hisoblanadi. **Masalan: Talabalar kelishdi.**

Shuni eslatib o'tish joizki, birgalik nisbati shaklidan so'ng har doim zamon shakllaridan birortasi kelishi kerak. **Masalan: Talabalar yozishadi. Talabalar kelishsa.**

Madrim Hamroyevning yozishicha Birgalik nisbatidagi fe'lda ish-harakat bir necha subyekt tomonidan birgalikda bajariladi. **Masalan: Ayollar chaqaloqqa ko'z tegmasligi uchun qilinadigan irim-sirimlarini bitirishgach bolani beshikka belashdi.** Gapida **bitirishgach, belashdi** fe'llari anglatgan harakatning bir necha subyekt, ya'ni ayollar tomonidan birgalikda bajarilganini anglatadi.

5. Nargiza Erkaboyevaning yozishicha Orttirma nisbati qo'shimchalari quyidagilardan iborat — **dir, -tir, -az, -ir, -iz, -qiz, -qaz, -kaz, -g'az, -sat, -t, -lar** dir. So'zlovchi ta'sirida harakat bajaruvchisi bittaga orttiriladigan nisbat shakli **Orttirma nisbat shakli** hisoblanadi. **Masalan: Tomoshabinga chiqishlar ko'rsattirdi. To'pni oshir. Suvni oqiz.**

Eslatib o'tishimiz joizki, orttirma nisbatda **o'tmoq** fe'lida **-kaz, -qaz**, qo'shimchalari paronimlikni yuzaga chiqaradi. **Masalan: O'quvchilarni o'tkaz. Ko'chatni o'tqaz.**

Buni qarangki orttirma nisbat qo'shimchasi bir fe'lga ketma-ket qo'shilishi mumkin ekan. Bu paytda nisbat ma'nosi kuchayar ekan. **Masalan: o'qittir, to'ldirgiz.**

Shuni ta'kidlab o'tish joizki **-ir, -ar, -iz** qo'shimchalari asosan bir bo'g'inli fe'lga qo'shiladi. **Masalan: Oshir, chiqar, oqiz** lar kabi.

Madrim Hamroyevning yozishicha Orttirma nisbatda harakat grammatik subyekt (ega) ning boshqa bir subyekt yoki obyektga ta'siri, tazyiqi bilan bajariladi, unga qo'shimcha ma'no qo'shadi, ya'ni bu qo'shimchalar harakatning bajaruvchisi (subyekt) va predmeti (obyekt) ni ko'rsatib, gap qurilishining qanday bo'lishini bildirib turadi. **Masalan: yozdi** -subyekt (ega) ning o'zi bajaradigan harakat, **yo'zildi**- predmet (obyekt) tomonidan bajarilib, subyekt noma'lum harakat, **yo'zishdi**- bir necha subyektlar bajaradigan harakat, **yo'zdirdi**- subyektning obyektga ta'siri bilan bajariladigan harakat deb ta'kidlab o'tadi.

Keling endi maqolamizni nisbatlar haqida umumiy xulosa qilamiz



1. Aniq, o‘zlik va orttirma nisbat shakllari gap oxirida zamonsiz qo‘llana oladi. **Masalan:** *kitobni o‘qi (aniq nisbat), Karim kiyin (o‘zlik nisbat), bolani kuldir (orttirma nisbat)*
2. Majhul va birgalik nisbati har doim gap oxirida zamon qo‘shimchasi bilan kelar ekan. **Masalan:** *bolalar ishlashdi (birgalik nisbat), kitob o‘qildiz (Majhul nisbat)*
3. Fe'l tarkibida bir nechta nisbat qo‘shimchalari ketma-ket qo‘shilishi mumkin. Bu paytda fe'lning qaysi nisbatda ekanligi eng oxirgisidan aniqlanadi. **Masalan:** *Kiyintirildi (majhul nisbat), o‘qittirishdi (birgalik nisbat)*. Ketma-ket qo‘llanilganida har doim majhul va birgalik eng oxirida keladi
4. Aniq va birgalik nisbatlari o‘timli fe'l ni ham o‘timsiz fe'lni ham shakllantiradi.
Masalan: *kelmoq (aniq nisbat) -ni ✗,*
o‘qimoq (aniq nisbat) -ni ✓,
kelishdi (birgalik nisbat) -ni ✗, o‘qishdi (birgalik nisbat) -ni ✓
5. Orttirma nisbat faqat o‘timli fe'lni yuzaga chiqadi. Shuningdek har qanday o‘timsiz fe'lni vosita yordamida o‘timliga aylantiradi.
Masalan : *keltir, kuldir, uxlat.* Vosita yordamida o‘timliga aylangan.
6. O‘zlik va majhul nisbat faqat o‘timsiz fe'lni shakllantiradi, shuningdek har qanday yordamida o‘timsizga aylantiradi. **Masalan:** *kitobni o‘qi — kitob o‘qildi, yuqoriga chiq — yuqoriga chiqildi.*
7. Tilimizda *yordamlashmoq, faxrlanmoq, surishtirnoq, atrofni kuzatmoq, birlashmoq, kelishmoq* kabi ayrim fe'llar ko‘rinishi jihatdan orttirma, birgalik, o‘zlik nisbatiga o‘xshamasada aniq nisbat deyiladi. **Masalan:** *Karim ota-buvisini surishtirdi.*
Karim faxrlandi
Karim yordamlashdi
Karim atrofni kuzatdi.
8. Lekin sochini kuzatmoq fe'li orttirma nisbatda bo‘ladi. **Masalan:** *Karim sochini kuzatdi.*

Foydalangan adabiyotlar

- 1) M. Hamroyev. Ona tili. — T: Iqtisod-moliya. 2007.
- 2) Nargiza Erkaboyeva.